ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмудходжаева Луиза Сайфулловна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	
THE ROLE OF DIGITAL MARKETING IN BOOSTING TOURISM-RELATED BUSINESSES	1280
Farrukh Mamadiyrov Shukhratovich	
MINTAQA IQTISODIY BARQARORLIGINI BAHOLASH INDIKATORLARI VA USLUBLARI	1284
Turdiyev Ulug'bek Qayumovich	
MAJOR INFLATIONARY FACTORS IN THE ECONOMY OF UZBEKISTAN AND ANTI-INFLATION POLICIES	1290
Koshanov Abdimurat Azat uli, Oralbaeva Diana Mukhit qizi	
ЦИФРОВАЯ ЭКОСИСТЕМА СОВРЕМЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА: МОДЕЛИ, МЕХАНИЗМЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ	1296
Бекова Азиза Алимовна	
SOLIQ MAJBURIYATLARINI HISOBGA OLISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1301
Abdullayev Abror Bozarboyevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AKSIZ SOLIINING FISKAL VA IJTIMOIIY ROLI	1308
Abdulxayeva Shaxnoza Muxammadiyevna	
MINTAQAVIIY IQTISODIYOTDA AGROTURIZMNI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI	1314
Egamberdiyeva Umriniso Tursunqulovna, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
OLIY TA'LIMDAGI RAQAMLI YECHIMLARNING SAMARADORLIGI VA UNI BAHOLASH MEZONLARI	1320
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
SURXONDARYO VILOYATI SHAROITIDA AKVAPARK VA SUZISH HAVZALARI QURILISHINI TAHLIL QILISH HAMDA TAVSIYALAR BERISH	1326
Olimjonov Firdavs	
FISKAL FEDERALIZM NAZARIYASI VA UNING AMALIY AHAMIYATI	1332
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Alijonov Ahadjon Hasanboy o'g'li	
OILAVIIY MUHITDA QIZLARNING EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISH: IJTIMOIIY PEDAGOGIK YONDASHUV (O'ZBEKISTONDA)	1336
Qayimova Maftuna Tursunovna	
«YASHIL IPOTEKA» AMALIYOTI: XORIJIY TAJRIBALAR	1340
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ ПРОЦЕССОВ ПРИНЯТИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА. ФОРМИРОВАНИЕ НОВОЙ ПАРАДИГМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ	1344
Бурханова Шахноза Бобировна	
QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATINI KENGAYTIRISH MASALALARI	1353
Abduvoxidova N.G., Karimova A.M.	
ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ASOSIIY MECHANIZMLARI	1359
Mirzarayimova Feruza Zokirjon qizi, Levakov Izzatulla Nematillayevich	



TO'G'RI SOLIQLARNI UNDIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH AMALIYOTI TAHLILI	1365
Xo'jaqulov Ramshid Yunusovich	
O'ZBEKISTONDA BANK TIZIMINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1372
Kasimova Zilolaxon Botir qizi	
INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIYALASHTIRISHNING IQTISODIY MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	1379
Gafurov Ma'ruf Xakimovich	
KREDIT RISKI VA UNGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	1383
Karimova Shohida Zaylobiddinovna	
SURXONDARYO VILOYATI TUMANLARINING IQTISODIY MODERNIZATSIYASI: ASOSIY OMILLAR VA TENDENSIYALAR.....	1389
Qosimova Nodira Saidovna	
BUXORO VILOYATIDA YASHIL AGROTURIZM KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH	1395
Umurov J.	
TIJORAT BANKLARI FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA ULARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI.....	1403
Ostonaqulova Gulchehraxon Muhammadyoqub qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNESNING EKSPORT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	1409
Raxmatullayev Umarbek Ulug'bekovich	
FERMERLAR KOOPERATSIYASI VA XALQARO BOZORLARGA KIRISH: O'TISH DAVRI IQTISODIYOTIDAN XULQ-ATVOR, DEMOGRAFIK VA INSTITUTSIONAL NUQTAI NAZARLAR.....	1415
Tursunqulov G'olib Shavkat o'g'li	
ERKIN IQTISODIY ZONALARNI KLASSTER ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	1422
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Sharipov K. A.	
КОРПОРАТИВНОЕ УПРАВЛЕНИЕ В АВТОМОБИЛЬНОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА: СТРАТЕГИИ УПРАВЛЕНИЯ РИСКАМИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РОСТА И СОБЛЮДЕНИЯ РЕГУЛЯТОРНЫХ ТРЕБОВАНИЙ.....	1427
Шамсуддинов Шухрат Нематович	
ПУТИ ВНЕДРЕНИЯ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	1431
U. D. Gayratov	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASIGA BO'LGAN EHTIYOJ VA ZARURIYAT: UNING AHAMIYATI.....	1435
Sh.N.G'afforov	
MEHNAT RESURSLARINI BOSHQARISH VA UNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	1439
Uzoqov Lutfillojon Fayzullojonovich	
DAVLAT TOMONIDAN IQTISODIY NAZORATNING BOZOR BARQARORLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA GLOBAL AMALIYOT TAHLILI	1443
Rasulev Alisher Fayziyevich. Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TASHQI DAVLAT QARZINING VALYUTA TUZILMASI VA UNING QARZ BARQARORLIGIGA TA'SIRI TAHLILI	1446
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR ORQALI DAROMADLAR O'SISHINI BAHOLASH METODOLOGIYASI.....	1452
Eshbaeva Shahnoza Faxriddinovna	
ЭКОНОМИКА УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И ПРАКТИКА.....	1457
Рустамов Зокир Тоирович	
EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA AKT NING ROLI: RIVOJLANAYOTGAN DAVLATLAR MISOLIDA	1461
Sadriddinov Ulug'bek Jaloliddin o'g'li	
ВЗАИМОСВЯЗЬ МЕЖДУ ИНВЕСТИЦИОННЫМИ ПОТОКАМИ И ИМПОРТОМ В УЗБЕКИСТАНА	1467
Рустамов Фозилжон	
ICHKI BOZORDA PARRANDA GO'SHTI MAHSULOTINING NARX BARQARORLIGI VA KELGUSI TENDENSIYALARINI EKONOMETRIK MODELLAR ORQALI BAHOLASH	1475
Jumayev Olimjon Sadulloyevich	



TIBBIY XIZMAT INFRATUZILMASINING FARG'ONA IQTISODIY RAYONIDA JOYLASHUV XUSUSIYATLARI.....	1483
Xolmirzayeva Zulayxo Axmadjon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA MARKETING FAOLIYATINI BAHOLASH BO'YICHA METODOLOGIK YONDASHUVLAR ISHLAB CHIQISH.....	1488
Ibragimova Shaxlo Alimbayevna	
ENERGY TRANSITION DEBATE: ELECTRIC VEHICLES, OIL AND THE "GREEN" PARADOX.....	1492
Tokhirjonov Temurbek Alimardon ogli, Numonjon Malikov	
SANOATLASHUV NATIJASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA AHOLI BANDLIGINING KAMAYISHI TAHLILI	1500
B.Beknazarov	
RESPUBLIKA TO'QIMACHILIK SANOATINING SHAKLLANISHI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA RIVOJLANISHI.....	1505
Nurboyev Jaloliddin Mamadiyevich	
"YASHIL IQTISODIYOT" VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	1510
Qurbonov Shovqi Djurayevich	
THE ROLE OF ENVIRONMENTAL FACTORS IN THE COURSE OF ACUTE RHEUMATIC FEVER IN CHILDREN.....	1516
Kuldashev Sardor Furqatovich	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA DARAJASINI BAHOLASHNING AXBOROT TIZIMI ASOSIDA MONITORING MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI.....	1520
Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o'g'li	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI	1527
Sobirova Muxlisa	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
“YASHIL” IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaocu, Уркинбаев Т. А.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	



HUDUDLARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI

N. Tursunov

Mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Maqolada hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Hududlar rivojlanishini ta'minlashda erkin iqtisodiy hududlarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy xulosa va takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hudud, investitsiya, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, erkin iqtisodiy zona, innovatsiya.

Abstract. The article explores issues of socio-economic development of Regions. The role and importance of free economic regions in ensuring the development of Regions is highlighted. Scientific conclusions and proposals on improving the activities of free economic regions are also presented.

Key words: territory, investment, socio-economic development, Free economic zone, innovation.

Аннотация. В статье исследуются вопросы социально-экономического развития регионов. Освещается роль и значение свободных экономических регионов в обеспечении развития регионов. Также представлены научные выводы и предложения по совершенствованию деятельности свободных экономических регионов.

Ключевые слова: территория, инвестиции, социально-экономическое развитие, свободная экономическая зона, инновация.

KIRISH

Mamlakat taraqqiyotining poydevori hisoblangan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish masalasi bugungi kunda nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham eng muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Aholi sonining ortib borishi, resurslar taqsimotidagi nomutanosiblik, ichki va tashqi bozorlar talablari hamda zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining jadal rivojlanishi hududlararo tafovutlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda davlatning asosiy vazifalaridan biri barcha hududlarning teng va izchil iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, erkin iqtisodiy hududlar (EIH) zamonaviy iqtisodiy mexanizm sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIHlar mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini oshirish va eng muhimi, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ular xorijiy kapitalni jalb etish, yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni rivojlantirish, zamonaviy infratuzilmani shakllantirish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urganch", "Xazorasp" va boshqa erkin iqtisodiy hududlar misolida ko'plab ishlab chiqarish korxonalari tashkil etilib, yuzlab yangi ish o'rinlari yaratildi. Shu bilan birga, ushbu jarayonda hal etilmagan muammolar ham mavjud bo'lib, ayrim EIHlarning salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, qonunchilikdagi ayrim nomuvofiqliklar va byurokratik to'siqlar shular jumlasidandir.

Mazkur omillarni inobatga olgan holda, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlarning tutgan o'rnini tahlil qilish, ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada erkin iqtisodiy hududlar konsepsiyasining nazariy asoslari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksional vazifalari, O'zbekistondagi amaldagi holati hamda xorijiy tajribalar asosida



takomillashtirish yo'llari keng yoritiladi. Shuningdek, EIHLar faoliyatining hududiy rivojlanishga ta'siri statistik va tahliliy ma'lumotlar asosida baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalasi hamda ushbu jarayonda erkin iqtisodiy hududlarning (EIH) tutgan o'rni bo'yicha mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ko'plab ilmiy ishlar, maqolalar, dissertatsiyalar va amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Mazkur mavzuning dolzarbligi hududiy rivojlanishdagi nomutanosibliklarni bartaraf etish, investitsiyalarni jalb qilish va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish zarurati bilan bog'liq bo'lib, uni chuqur tahlil qilish, nazariy asoslarini o'rganish va amaliy natijalarini baholash ehtiyojini yuzaga keltirgan.

Xalqaro miqyosda erkin iqtisodiy hududlar (free economic zones – FEZ) konsepsiyasi XIX asr oxirlaridan boshlab shakllana boshlagan bo'lsa-da, ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran ularning samaradorligi va hududiy rivojlanishdagi roli keng ko'lamda ilmiy tadqiq etila boshlandi. Jumladan, Paul Krugman, Michael Porter va John Dunning kabi iqtisodchi olimlar o'z tadqiqotlarida sanoat klasterlari, erkin zonalar va innovatsion infratuzilmalarning hududiy rivojlanishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, erkin iqtisodiy hududlar nafaqat iqtisodiy faollikni oshiruvchi, balki institutsional va ijtimoiy islohotlarni tezlashtiruvchi samarali mexanizm sifatida ham xizmat qiladi.

Xususan, The Competitive Advantage of Nations asarida M. Porter erkin iqtisodiy hududlar orqali mintaqalarda raqobatbardosh sanoat klasterlarini shakllantirish g'oyasini ilgari suradi. Shuningdek, Xitoy, Janubiy Koreya, Singapur va Dubay tajribalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda EIHLarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishining asosiy omillari sifatida rivojlangan infratuzilma, huquqiy erkinlik, soliq va bojxona imtiyozlari, boshqaruv samaradorligi hamda investorlarga qulay muhit yaratish omillari alohida ta'kidlanadi.

O'zbekistonda erkin iqtisodiy hududlarga oid ilmiy tadqiqotlar asosan 2000-yillardan boshlab shakllana boshlagan. Jumladan, A. Xodjayev, S. Mahkamov, N. Shodmonov, M. Xamidov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan EIHLarning iqtisodiy samaradorligi, hududiy rivojlanishga ta'siri, investitsion muhitni yaxshilashdagi roli va bandlikka qo'shgan hissasi masalalari tadqiq etilgan. A. Xodjayev o'z ilmiy ishlarida erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish zarurligini asoslab bergan bo'lsa, S. Mahkamov EIHLarning eksport salohiyati va bandlik darajasiga ta'sirini statistik tahlillar asosida yoritgan.

So'nggi yillarda Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan iqtisodiy islohotlarda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini kengaytirish, ularning samaradorligini oshirish va hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilandi. Davlat dasturlari va strategik hujjatlarda EIHLarni hududiy rivojlanishning drayveriga aylantirish vazifasi alohida ta'kidlab o'tilmoqda.

Shunga qaramay, mavjud ilmiy adabiyotlarda ayrim muhim jihatlar yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, erkin iqtisodiy hududlarning uzoq muddatli ijtimoiy ta'siri, mahalliy aholining iqtisodiy faolligiga ta'siri, hududlararo raqobat muammolari, shuningdek, ekologik xavflar bilan bog'liq masalalar hali to'liq o'rganilmagan. Bundan tashqari, ko'plab tadqiqotlarda EIHLar faoliyati umumiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholangan bo'lib, har bir hududning o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmagan.

Erkin iqtisodiy hududlarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi sezilarli bo'lishiga qaramay, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar uchun hali ham keng imkoniyatlar mavjud. Bu esa EIHLar samaradorligini oshirish, ularning hududiy rivojlanishga real ta'sirini chuqur baholash hamda ilmiy asoslangan amaliy takliflar ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy tadqiqot usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etib, u erkin iqtisodiy hududlarni hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim institutsional mexanizmi sifatida yaxlit holda tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda tahlil va sintez usullari orqali erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, ularning investitsiyalar jalb etish, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, bandlikni oshirish va eksportni kengaytirishdagi o'rni o'rganildi. Qiyosiy-taqqoslash usuli yordamida O'zbekistondagi erkin iqtisodiy hududlar faoliyati xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi.

Shuningdek, iqtisodiy-statistik tahlil usullari (dinamik qatorlar, nisbiy va mutlaq ko'rsatkichlar, strukturaviy tahlil) asosida EIHLar faoliyatining hududiy iqtisodiyotga ta'siri baholandi. Mantiqiy umimlashtirish va induksiya-deduksiya usullari tadqiqot davomida olingan natijalar asosida xulosalar chiqarish va ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda qo'llanildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar (EIH) muhim institutsional mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular mintaqaviy sanoatlashuvni jadallashtirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, investitsiyalarni jalb qilish, eksport hajmini oshirish hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali hududlarda muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlashda faol rol o'ynamoqda.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar orqali hududiy sanoat salohiyati sezilarli darajada oshib bormoqda. Xususan, 2023-yilning 9 oyi davomida EIH va boshqa maxsus iqtisodiy zonalarda 55 trillion so'mdan ortiq sanoat mahsuloti ishlab chiqarilgan, 5,6 trillion so'm miqdorida investitsiyalar jalb etilgan hamda yuzlab yangi loyihalar amalga oshirilib, minglab yangi ish o'rinlari yaratilgan.

Mamlakatda faoliyat yuritayotgan yirik erkin iqtisodiy hududlar qatoriga "Navoiy", "Angren", "Jizzax", "Urganch" va "Xazorasp" zonalar kiradi. Ushbu hududlar ichida eng katta investitsiya hajmi "Navoiy" EIH hissasiga to'g'ri kelib, mazkur zonada zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan loyihalar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, tahlillar shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning atigi 18 foizi eksportga yo'naltirilgan. Bu holat EIHlarning asosiy maqsadlaridan biri bo'lgan tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish vazifasi to'liq amalga oshirilmayotganini ko'rsatadi.

Eksport hajmining pastligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Jumladan, mahsulotlarning xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi, logistika va transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani, tashqi bozorlar bilan barqaror savdo aloqalarining shakllanmaganligi hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport faoliyati bo'yicha bilim va tajribasining cheklanganligi shular jumlasidandir.

Erkin iqtisodiy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri faqat ishlab chiqarish va investitsiya ko'rsatkichlari bilangina cheklanmay, balki hududlarda bandlik darajasining oshishi, aholining real daromadlari ko'payishi va ichki migratsiya oqimlarining qisqarishi bilan ham namoyon bo'ladi. Shu jihatdan, EIHlar hududiy ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq EIHlarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning atigi 16 foizi yuqori texnologiyali mahsulotlar hissasiga to'g'ri kelayotgani ishlab chiqarish tuzilmasida xomashyo va past qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ustunlik qilayotganini ko'rsatadi. Bu esa innovatsion rivojlanish darajasining yetarli emasligidan dalolat beradi.

Innovatsion faollikning pastligi, asosan, texnologik transfer mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmagani, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyaning sustligi hamda innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimining zaifligi bilan bog'liqdir. Ushbu muammolarni bartaraf etish EIHlar samaradorligini oshirish va ularning hududiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirish uchun muhim shart hisoblanadi.

1-jadval. Erkin iqtisodiy hududlarning hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta'siri

№	Ta'sir yo'nalishlari	EIHlar orqali amalga oshiriladigan mexanizmlar	Hudud rivojiga ta'siri
1	Investitsiya jalb qilish	Soliq va bojxona imtiyozlari, qulay biznes muhiti	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi
2	Ish bilan bandlik	Yangi sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish	Aholining bandlik darajasi oshadi
3	Sanoat rivoji	Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish	Hudud sanoat salohiyati kuchayadi
4	Eksport salohiyati	Eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish	Hudud eksport hajmi va valyuta tushumi oshadi
5	Infratuzilma rivoji	Yo'l, energetika, logistika tarmoqlari	Hududning investitsion jozibadorligi ortadi

Mazkur jadvalda erkin iqtisodiy hududlarning hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatadigan asosiy ta'sir yo'nalishlari tizimli ravishda yoritilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, erkin iqtisodiy hududlar, avvalo, investitsiya muhitini yaxshilash orqali hududlarga kapital oqimini kuchaytiradi. Soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek ruxsat berish tartib-taomillarining soddalashtirilishi investorlar uchun qulay va barqaror sharoit yaratadi.

Bundan tashqari, erkin iqtisodiy hududlar doirasida yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hududlarda bandlik darajasining oshishiga olib keladi. Bu jarayon aholi daromadlarining ko'payishi, ijtimoiy barqarorlikning mustahkamlanishi hamda ichki bozor faolligining oshishiga xizmat qiladi. Infratuzilmaning rivojlanishi esa uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy o'sish uchun muhim omil bo'lib, hududlarning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



2-jadval. Erkin iqtisodiy hududlar faoliyati natijasida hududlarda erishilgan asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (model asosida)

Ko'rsatkichlar	EIH tashkil etilishidan oldin	EIH tashkil etilgandan so'ng	O'sish sur'ati (%)
Investitsiyalar hajmi (mln AQSh dollari)	120	420	+250 %
Yangi ish o'rinlari soni	2 500	9 000	+260 %
Sanoat mahsulotlari hajmi (mlrd so'm)	1,8	6,5	+261 %
Eksport hajmi (mln AQSh dollari)	45	170	+278 %
Soliq tushumlari (mlrd so'm)	0,9	3,2	+255 %

2-jadvalda erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining hududiy iqtisodiyotga ta'siri statistik-model ko'rsatkichlar asosida ifodalangan. Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar tashkil etilgandan so'ng hududlarga jalb qilingan investitsiyalar hajmi bir necha barobarga oshgan. Mazkur holat ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bilan bevosita bog'liqdir.

Yangi ish o'rinlarining keskin ko'payishi hududlarda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Eksport hajmining o'sishi esa hududlarning tashqi iqtisodiy aloqalari mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, soliq tushumlarining ortib borishi erkin iqtisodiy hududlarga berilgan imtiyozlarga qaramasdan, uzoq muddatli istiqbolda davlat byudjeti uchun ijobiy fiskal samara ta'minlanayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari erkin iqtisodiy hududlar hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kuchli katalizator vazifasini bajarayotganini ilmiy jihatdan asoslab beradi. Biroq tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlarda faoliyat olib borish uchun tasdiqlangan loyihalarining atigi 25-30 foizi to'liq amalga oshirilgan bo'lib, qolgan loyihalar moliyaviy, byurokratik va infratuzilmaviy muammolar sababli to'liq ishga tushmagan.

Mazkur holat quyidagi muammolarning mavjudligini ko'rsatadi:

- elektr energiyasi, gaz va suv ta'minotidagi uzilishlar;
- transport va logistika infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi;
- loyihalarni amalga oshirish jarayonidagi ma'muriy to'siqlar.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistondagi erkin iqtisodiy hududlar hududiy rivojlanishni jadallashtirishda muhim rol o'ynamoqda. Ular sanoatni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy bandlikni oshirish borasida sezilarli natijalarga erishgan bo'lsa-da, mavjud salohiyat hali to'liq ishga solinmagan.

Shu munosabat bilan, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining samaradorligini yanada oshirish maqsadida quyidagi yo'nalishlarda chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ulushini oshirish;
- yuqori texnologiyali va innovatsion ishlab chiqarishni kengaytirish;
- infratuzilmaviy muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish;
- loyihalarni boshqarish va monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, erkin iqtisodiy hududlar (EIH) hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim strategik instrument sifatida namoyon bo'lmoqda. EIHlar orqali hududlarga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishi, sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi hamda zamonaviy texnologiyalar transferi ta'minlanmoqda. Bu jarayonlar hududlar iqtisodiy salohiyatining oshishiga, infratuzilmaning rivojlanishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, erkin iqtisodiy hududlar hududlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish, eksportga yo'naltirilgan hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, EIHlar faoliyatining samaradorligi ularning geografik joylashuvi, mavjud infratuzilma darajasi, investitsion muhitning jozibadorligi hamda boshqaruv tizimining sifati bilan bevosita bog'liqdir.



Biroq ayrim erkin iqtisodiy hududlarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish jarayonida byurokratik to'siqlar, infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi va malakali kadrlar tanqisligi kabi muammolar mavjud bo'lib, bu holat ularning to'liq salohiyatidan samarali foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, erkin iqtisodiy hududlar faoliyatini yanada takomillashtirish hududlarni barqaror rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda erkin iqtisodiy hududlar samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Erkin iqtisodiy hududlar infratuzilmasini kompleks rivojlantirish, jumladan, transport-logistika, energetika va raqamli infratuzilmani zamonaviy talablar asosida takomillashtirish zarur.

2. EIHLarda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish va "bir darcha" tamoyilini to'liq joriy etish orqali byurokratik to'siqlarni qisqartirish lozim.

3. Mahalliy kadrlar salohiyatini oshirish, EIHLar ehtiyojlaridan kelib chiqib kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari bilan integratsiyani kuchaytirish, amaliy tayyorlov dasturlarini keng joriy etish maqsadga muvofiq.

4. Hududiy ixtisoslashuvni chuqurlashtirish, har bir erkin iqtisodiy hududning tabiiy, mehnat va iqtisodiy resurslarini inobatga olgan holda aniq tarmoqlarga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

5. Innovatsion va yuqori qo'shilgan qiymatga ega loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali EIHLarning raqobatbardoshligini oshirish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining samaradorligini oshirishga, hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eshqobilov Sh.N. Erkin iqtisodiy hududlarni rivojlantirishda jahon tajribasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2020. №3.
2. To'xtasinov A.A. Hududiy iqtisodiyot. Darslik. Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Abdurahmonov Q.X. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish nazariyasi. Toshkent: Fan, 2018.
4. UNCTAD. World Investment Report 2019: Special Economic Zones. New York and Geneva: United Nations, 2019.
5. World Bank. Special Economic Zones: Performance, Lessons Learned, and Implications for Zone Development. Washington, DC, 2008.
6. Farole T. Special Economic Zones in Africa: Comparing Performance and Learning from Global Experience. Washington, DC: World Bank, 2011.
7. Zeng D.Z. Special Economic Zones: Lessons from China. World Bank Policy Research Working Paper. 2010.
8. OECD. Global Value Chains and Special Economic Zones. Paris: OECD Publishing, 2018.
9. International Labour Organization (ILO). Employment and Labour Conditions in Special Economic Zones. Geneva, 2017.
10. Asian Development Bank. Asian Economic Integration Report: Special Economic Zones. Manila, 2020.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
